ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.06.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

MASHARIPOVA YULDUZ OTAXANOVNA

LEKSIK TRANSFORMATSIYALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

(Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining ingliz tiliga tarjimalari misolida)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Urganch – 2026

UO‘K: 811.512.133′255.2:008+811.111′255.2:008

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of philosophy (PhD) on Philological sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Masharipova Yulduz Otaxanovna
Leksik transformatsiyalarning lingvokulturologik tadqiqi (Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining ingliz tiliga tarjimalari misolida) 3

Masharipova Yulduz Otakhanovna
A Linguocultural Analysis of Lexical Transformations (On the example of English translations of Abdulla Qodiriy’s novel “O‘tkan kunlar”) 25

Машарипова Юлдуз Отахановна
Лингвокультурологический анализ лексических трансформаций (на примере переводов романа Абдуллы Кадыри Минувшие дни на английский язык)....47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ.....51

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.06.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

MASHARIPOVA YULDUZ OTAXANOVNA

LEKSIK TRANSFORMATSIYALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

(Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining ingliz tiliga tarjimalari misolida)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Urganch – 2026

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil4177 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.urdu.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Jumaniyozov Zohid Otaboyevich** filologiya fanlari doktori (DSc), prof. v.b.
Rasmiy opponentlar:	**Cho‘ponov Otanazar Otajonovich** filologiya fanlari doktori (DSc), prof. v.b.
	Djumabayeva Jamila Sharipovna filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.06.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “17” noyabr soat 09:00dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00; e-mail: www.fil-ik.urdu.uz.

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№01078raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00); e-mail: arm@urdu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “02” noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil “02” noyabr dagi 05 raqamli reyestr bayonnomasi).

A.D.O‘razboyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.O.Masharipova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

A.I.Primov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligi va adabiyotshunosligi taraqqiyotida turli tizimli tillarni qiyosiy o‘rganish hamda milliy adabiyotlarni boshqa xalqlarga tanishtirishning ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, badiiy tarjima millatlararo munosabatlarni rivojlantirish, milliy adabiyotlarni boyitish, adabiy aloqalarni mustahkamlashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, tarjima jarayonida milliy-madaniy birliklar, badiiy obrazlar hamda uslubiy xususiyatlarni tarjima tilida adekvat ifodalash bilan bog‘liq muammolar yuzaga keladi. Mazkur muammolar asliyat mazmuni, milliy-madaniy xususiyatlari va muallif uslubining to‘laqonli saqlanishiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli tarjima amaliyotida mavjud muammolarni aniqlash va tizimli tadqiq etish, ularni bartaraf etishning samarali usullarini belgilash, tarjima jarayonidagi leksik transformatsiyalarni qiyosiy tahlil qilish hamda tarjima sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

Dunyo tarjimashunosligida tarjimani madaniyatlararo kommunikatsiya jarayoni sifatida tadqiq etish bilan bir qatorda uning chog‘ishtirma tilshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik va lingvokulturologiya fanlari bilan uzviy aloqadorligini inobatga olib, milliy-madaniy birliklarning tarjimada ifodalanishi bo‘yicha ham qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Turli milliy madaniyatlarni ifodalovchi til vositalarini qiyoslash, milliy mentalitet va uning til orqali namoyon bo‘lish xususiyatlari borasida ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, tarjimaga lingvokulturologik yondashuv masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan. Xususan, lingvokulturemalarni tarjimada ifodalash, ularning milliy-madaniy jihatlarini saqlab qolish muammolari alohida tadqiqotni talab qiladi. Shu jihatdan tarjima jarayonida lingvokulturologik omillarning o‘rni va ahamiyatini aniqlash, milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiruvchi til birliklarini tarjima qilish usullari mazkur tadqiqot ishining dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

Mamlakatimizda milliy o‘zligimizni jahonga namoyon qilish ishlari jadal tus olmoqda. Xalq madaniyati xususiyatlarining til materialida aks ettirish masalasi lingvomadaniy paradigma qonuniyatlariga muvofiq tilni nafaqat tizim, balki xalqning madaniy tasavvurlarini o‘z ichiga oluvchi milliy ong to‘g‘risidagi bilimlarning asosiy manbayi sifatida o‘rganish tarjima vositasida keng yoritilmoqda. Bu yo‘nalishning davlat siyosati darajasidagi ahamiyati Prezidentimizning quyidagi fikrlarida o‘z ifodasini topgan: “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlashi, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir [1] ”. Shu jihatdan milliy-madaniy birliklarning

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. Lex.uz/docs/4661730

tarjimada adekvat ifodalanishi, ularning milliy xususiyatlarini saqlash hamda tarjima usullarini ilmiy asoslash dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qaror, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 312-son qarori, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida leksik transformatsiya usullarini o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish ustida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Shu jumladan, J.S.Katford, P.Nyumark, J.Vinay va J.Darbelnet, E.A.Nida, S.Bassnett, A.Lefevere, E.S.Aznaurova, V.N.Komissarov, L.S.Barxudarov, Ya.I.Retsker, Z.G.Proshina, V.S.Vinogradov, T.R.Leviskaya, A.M.Fitterman, V.V.Alimov [2] ushbu sohaga oid ilmiy-tadqiqot ishlar olib borishgan.

[2] Catford J.C. A linguistic theory of Translation. – Oxford University Press, 1965. – 103 p.; Peter Newmark. A textbook of translation. – Prentke Hall International Group Press, 1988. – 292 p.; Jean-Paul Vinay, Jean Darbelnet. Comparative stylistics of French and English. A methodology for translation. Volume 11. Philadelphia, 1995. – 359 p; Eugene A.Nida. Contexts in Translating. – John Benjamins Press, 2001. Amsterdam/Philadelphia. – 127 p.; Bassnett S., Lefevere A. Constructing cultures: Essays on literary translation. – Shanghai foreign language education Press, 2001. – 143 p.; Aznaurova E.S., Abdurakhmanova Kh.I., Demidova I.M., Iriskulov M.T., Phomenko N.V., Sabirova M.A., Takhirjanova S.T., Khudaiberganova M. K. “Translation theory and practice”. O‘qituvchi, 1989. – 176 c.; Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). Учеб. – М., 1990. – 174 с.; Бархударов Л.С. Язык и перевод. М., изд. Международные отношения, 1975. – 240 с.; Я.И. Рецкер. Теория перевода и переводческая практика. – М.: «Р. Валент», 2007. – 244 с.; Прошина З.Г. Теория перевода. Уч. на англ. яз. – Владивосток: Изд-во Дальневост. ун-та, 2008. – 276 с.; Виноградов В.С. Введение в переводоведение. М.: Издательство института общего средного образования РАО, 2001. – 224 с.; Левицкая Т.Р., Фиттерман А.М. Проблемы перевода. М., 1976. – 208 с.; Алимов В.В., Теория перевода. Перевод в сфере прфессиональной коммуникации. Учебное пособие. Изд. 3-е, стереотипное. – М.: Едиториал УРСС, 2005. – 160 с.;

O‘zbek tilshunosligida leksik transformatsiya usullari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari G‘aybulloh as-Salom, Q.Musayev, I.G‘ofurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov, Z.O.Jumaniyozovlarning[3] ilmiy izlanishlarida tahlilha tortilgan.

Vazifasi til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni o‘rganish va tavsiflashdan iborat bo‘lgan lingvokulturologiya fani dunyo tilshunosligida V.Fon Gumboldt, E.Sapir, A.A.Potebnya, V.V.Vorobev, V.N.Teliya, G.G.Slishkin, N.Alefirenko, V.A.Maslova, Z.K.Sabitova, V.V.Krasnix, E.I.Zinovyeva[4] kabi olimlar, o‘zbek tilshunosligida Sh.S.Safarov, J.A.Yaqubov, O‘.Q.Yusupov, D.U. Ashurova, A.E.Mamatov, N.M.Mahmudov, D.S.Xudoyberganova, D.R.Djumanova, M.D.Djusupov, Sh.Usmonovalar [5] tomonidan tadqiq etilgan.

So‘nggi yillarda lingvokulturologiyaning nazariy muammolari turli tizimli tillar misolida U.R.Yo‘ldoshev, A.A.Sharipova, D.A.Tosheva, D.K.Baxronova, N.A.Tuxtaxodjayeva, D.A.Rustamova, Z.Q. Teshaboyeva, L.E.Xolmuradova, Sh.A.Sheraliyeva, M.Z.Solijonov, A.M Kurganovlar[6] ning qiyosiy aspektdagi izlanishlarida o‘rganilgan.

---

[3] G‘aybulloh as-Salom. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. T., 2003. – 54 b.; Qudrat Musayev. Tarjima nazariyasi asoslari: Darslik.: T.: O‘zbekiston Respublikasi FA “Fan” nashriyoti, 2005. – 352 b.; G‘ofurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2012. – 216 b. Jumaniyozov Z.O. Tarjimaning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent, 2018. – 133 b.

[4] Гумбольдт В.Ф. Избранные труды по языкознанию / Пер. Г.В.Рамишвили. – Москва: Прогресс, 1984. – 400 с.; Сепир Э. Введение в изучение речи // Избранные труды по языкознанию и культурологи. – 185 с.; Потебня А.А. О некоторых символах в славянской народной поэзии. О связи некоторых представлений в языке. О купальских огнях и сродных с ними представлениях. О доле и сродных с нею существах. – Харьков, 1914. – 244 с.; Воробьев В.В. Лингвокультурология: (Теория и методы). – Москва: Изд-во Рос. ун-та дружбы народов. 1997. – С. 331.; Телия В.Н. О методологических основаниях в лингвокультурологии// Межд. конференция «Логикв, методология, философия науки». – Москва: Обнинск, 1995.; Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.; Слышкин Г.Г. От текста к символу. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознания дискурса. – М.: Academia, 2000. – 128 с.; Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно смысловое пространство языка. Учебное пособие. – М.: Флинта, 2016. – 288 с.; Маслова В.А. Лингвокультурология. Введение. Учеб. пособие. М.: Академщмия, 2001. – 208 с.; Сабитова З.К. Лингвокультурология: Учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – 524 с.; Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. М.: ИТДГК «Гнозис», 2002. – 284 с.; Зиновьева Е.И. Лингвокультурология: от теории к практике. Учебник. – СПб.: СпбГУ; Нестор-История, 2016. – 182 с.

[5] Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 92 b.; Yaqubov J. Fransuz tilida «muhabbat» konseptining kognitiv xususiyatlari / olmonshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari. – T., 2011. – B. 107–111; Yusupov O‘. Ma‘no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamalari xususida / Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarida. – T., 2011. – B. 49-55; Ashurova D. Text Linguistics. Tashkent: Tafakkur Qanoti. 2012. – 204 p.; Mamatov A. Lingvomadaniyatshunoslik: lingvokulturema va logoepistema. – Xorijiy filologiya. Til. Adabiyot. Ta‘lim. – Samarqand, 2015. – №1 (54). – B. 9–15; Mahmudov N. Olamning lisoniy manzarasi va so‘z o‘zlashtirish // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2015. №3. – B. 3–12.; Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – T., Turon-zamin-ziyo, 2015. – 42 b., Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. Toshkent 2019. – 244 b.

[6] Yo‘ldoshev U.R. Hajviy matnlar tarjimasining lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari (ingliz tiliga tarjima qilingan o‘zbek xalq latifalari misolida): Filol. fan. b. fals. dokt. (PhD) …diss. – Toshkent, 2017. – 163 b., Sharipova A.A. Stilistik sinonimlar tarjimasining lingvokulturologik xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida): Filol. fan. b. fals. dokt. (PhD) …diss. – Toshkent, 2017. – 160 b.; Tosheva D.A. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari: Filol. fan. b. fals. dokt. (PhD) …diss. – Toshkent, 2017. – 151 b.; Baxronova D.R. Antropozoomorfizmlarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari (o‘zbek va ispan tillari materialida): Filol. fan. b. fals. dokt. (PhD) …diss. – Toshkent, 2017. – 157 b.; Tuxtaxodjayeva N.A. Badiiy tarjimada lingvokulturemalarning ifodalanishi (ingliz va o‘zbek tillari misolida): Filol. fan. b. fals. dokt. (PhD) …diss. – Toshkent, 2017. – 141 b.; Rustamova D.A. Metaforik evfemizatsiyaning lingvokulturologik va sotsiopragmatik aspektlari: Filol. fan. b. fals. dokt. (PhD) …diss. – Toshkent, 2018. – 145 b.; Xolmurodova M.A. Abdulla Qodiriy nasrida qo‘llangan “ma‘naviyat” tushunchasi ifodalovchilarining ingliz tilida berilishi. Filol. fan. b.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq "Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani ingliz tilidagi tarjima variantlari asosida o'zbek tiliga xos lingvokulturemalar tarjimasida qo'llaniladigan leksik transformatsiya usullarini aniqlash va ularning funksional xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

til va madaniyat orasidagi uzviylikni lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish hamda tilshunoslikda shakllangan lingvomadaniy qarashlar va yondashuvlarning nazariy asoslarini ochib berish;

tarjima jarayonida qo'llaniladigan leksik transformatsiya usullarini aniqlash, ularning funksional xususiyatlarini tahlil qilish va ilmiy jihatdan tavsiflash;

A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan olingan lingvokulturemalarning inglizcha tarjima variantlari asosida leksik transformatsiya usullarini tahlil qilish orqali o'zbek va ingliz tilidagi madaniy tafovutlarga oydinlik kiritish;

o'zbek tilidagi lingvokulturemalarni inglizcha tarjima variantlari bilan qiyosiy-chog'ishtirma aspektda lingvokulturologik tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi lingvokulturemalar va ularning inglizcha tarjima variantlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o'zbek tilidagi lingvokulturemalarni ingliz tilida ifodalashda qo'llaniladigan leksik transformatsiya usullarining lingvokulturologik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda lingvistik tavsiflash, qiyosiy-chog'ishtirma, qiyosiy-tarixiy, komponent tahlil hamda statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek tilidagi lingvokulturemalarning ingliz tiliga tarjimalari leksik transformatsiya usullari vositasida chog'ishtirma aspektda tavsiflangan;

tarjimonlarning o'zbek tiliga xos milliy-madaniy leksik birliklarni ingliz tilida qayta ifodalashdagi yondashuvlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan, shuningdek, ularning tarjimada leksik transformatsiya usullaridan foydalanish darajasi tahlili asosida maxsus katalog ishlab chiqilgan;

transliteratsiya, kalkalash, konkretlashtirish, umumlashtirish, modulyatsiya hamda kompensatsiya kabi leksik transformatsiya usullarining funksional xususiyatlari va qo'llanilishiga oid materiallar tizimlashtirilib, "O'tkan kunlar"

---

fals. dokt. (PhD) …diss. – Toshkent, 2023. – 141 b.; Sheraliyeva Sh.A. Ingliz va o'zbek tillaridagi diniy frazeologik birliklarning lingvomadaniy aspekti. Filol. fan. b. fals. dokt. (PhD) …diss. – Toshkent, 2023. – 133 b.; Solijonov M. Z. Ingliz va o'zbek tillaridagi rivoyatlar konseptual maydonining lingvokulturologik tadqiqi. Filol. fan. b. fals. dokt. (PhD) …diss. – Toshkent, 2021. – 184 b.; Kurganov A. M. Ingliz va o'zbek tillarida harbiy terminlar qo'llanilishining lingvokulturologik xususiyatlari. Filol. fan. b. fals. dokt. (PhD) …diss. – Toshkent, 2021. – 163 b.

romani lingvokulturemalari tarjima variantlari misolida ilmiy-nazariy jihatdan dalillangan;

tarjimaning lingvokulturologik tadqiqida leksik transformatsiyalarning ahamiyati hamda muayyan milliy adabiyot lingvokulturemalari misolida o‘zbek va ingliz madaniyatlarining o‘xshash va farqli tomonlari ochib berilgan;

badiiy tarjimada lingvokulturemalarni leksik transformatsiyalar vositasida ifodalash asliyatdagi milliy koloritni yuqori darajada saqlash imkonini berishi isbotllangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Lingvokulturemalar tarjimasida qo‘llaniladigan leksik transformatsiya usullarining lingvokulturologik talqini yuzasidan chiqarilgan xulosa va natijalar, shuningdek, ishda foydalanilgan lisoniy materiallar tahlili sohani yangi ilmiy nazariy tushunchalar bilan boyitishi, lingvokulturemalar tarjimasida leksik transformatsiyalarni qo‘llash tarjimaga lingvomadaniy yondashuvni shakllantirishi borasidagi ilmiy qarashlarni rivojlantirishi hamda ushbu yo‘nalishda tadqiqotlar yaratishda manba bo‘lib xizmat qilishi asoslangan;

O‘zbek tilidagi lingvokulturemalarning ingliz tilida leksik transformatsiya usullari vositasida qayta ifodalanishi, shuningdek, ushbu jarayonning lingvokulturologik tadqiqi va turli tizimli tillar madaniyatining o‘ziga xos (o‘xshash va farqli) jihatlariga oid materiallar “Qiyosiy tilshunoslik”, “Qiyosiy tipologiya”, “Zamonaviy lingvistika”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Madaniyatlararo muloqot”, “Lingvomadaniyatshunoslik”, “Ingliz tili stilistikasi” fanlari bo‘yicha mavjud o‘quv qo‘llanmalarini boyitishi; ushbu tillarning badiiy matni tarjimasida qo‘llaniladigan leksik transformatsiyalarning, xususan, lingvokulturemalar tarjimasidagi samaradorligini o‘rganuvchi magistrant, doktorant va mustaqil tadqiqotchilar uchun ham ilmiy manba bo‘la olishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi lingvokulturemalar tarjimasida leksik transformatsiya usullarining samaradorligi va lingvokulturologik tahlili, nazariy ma’lumotlar bayonida ishonchli ilmiy manbalarga tayanilganligi, muammoning aniq qo‘yilganligi, chiqarilgan natija va xulosalarning qat’iyligi, qo‘llangan yondashuv usullari, tahlilga tortilgan faktik materiallar mukammal zamonaviy metodlar asosida tasnif qilinib, lingvistikaning zamonaviy ilmiy yutuqlaridan foydalangan holda tahlil hamda talqin qilinganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati leksik transformatsiya usullarining lingvokulturemalar tarjimasida qo‘llanishiga doir mavjud nazariy qarashlarni yangi bilimlar bilan boyitishga xizmat qilishi; har bir leksik transformatsiya usuli ma’lum lingvokulturema tarjimasida qo‘llanishi, shuningdek, tarjimada lingvokulturologik tahlilni hosil qiluvchi omillar ikkala tildagi differensial xususiyatlarni aniqlashda nazariy asos vazifasini o‘tashi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati leksik transformatsiya usullari vositasida tarjima qilinadigan lingvokulturemalar lug‘atini tuzishda hamda

mavjud izohli lug‘atlarni boyitishdagi hamda oliy o‘quv yurti filologiya yo‘nalishi, ayniqsa, chet tillari bo‘limi o‘quv rejasidagi qiyosiy tilshunoslik, tarjima nazariyasi va amaliyoti, leksikologiya va stilistika, madaniyatlararo muloqot fanlaridan ma’ruza, seminar mashg‘ulotlari hamda maxsus kurslarni tashkil qilish va ularga oid o‘quv qo‘llanmalarni takomillashtirishdagi samaradorligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Leksik transformatsiyalarning lingvokulturologik tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

o‘zbek tilidagi lingvokulturemalarning ingliz tiliga tarjimalarini leksik transformatsiya usullari vositasida chog‘ishtirma aspektda tavsiflashga oid ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Ta’lim va taraqqiyot”, “Jahon adabiyoti”, “Adabiy jarayon” dasturlari ssenariylarini tayyorlashda (2023–2025-yillar) foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanalining 2025-yil 16-sentabrdagi 05-09-1458-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuvlarning ilmiy-ma’rifiy mazmuni boyitilgan hamda milliy-madaniy birliklarning tarjimada ifodalanishiga oid ma’lumotlar keng tomoshabinlar auditoriyasiga yetkazilgan;

tarjimonlarning o‘zbek tiliga xos milliy-madaniy leksik birliklarni ingliz tilida qayta ifodalashdagi yondashuvlari tahlili hamda shu asosda ishlab chiqilgan maxsus katalogdan Erasmus+ dasturining 585845-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP – CLASS “Development of the interdisciplinary master program on Computational Linguistics at Central Asian universities” grant loyihasida foydalanilgan (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining 2025-yil 30-sentabrdagi 06-174/1-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek tili lingvokulturemalarining ingliz tiliga tarjima variantlari bo‘yicha yaratilgan maxsus katalog grant loyihasi ilmiy bazasining kengayishiga xizmat qilgan;

transliteratsiya, kalkalash va boshqa leksik transformatsiya usullarining funksional xususiyatlari hamda qo‘llanilishiga oid tizimlashtirilgan ma’lumotlardan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2023–2025-yillarda bajarilgan IL-27-4722022413-son “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanining “Komparativistika” elektron platformasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihada, xususan, loyiha doirasida nashr etiladigan “KOMPARATIVISTIKA” (Comparative Studies) ilmiy elektron jurnalining 8-sonida chop etilgan “The features of calque as a lexical transformation” maqolasida foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 26-sentabrdagi 04-04-1/5681-son ma’lumotnomasi). Natijada elektron platforma yangi faktik ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan hamda “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanining ta’lim sifatini oshirishga erishilgan;

tarjimaning lingvokulturologik tadqiqida leksik transformatsiyalarning ahamiyati hamda muayyan milliy adabiyot lingvokulturemalari misolida o‘zbek va ingliz madaniyatlarining o‘xshash va farqli jihatlariga oid ilmiy xulosalardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2024-yilda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar

dasturi IX yo‘nalishining “Davlat tilining jamiyatdagi mavqei va nufuzini oshirish, matbaa-nashr ishlarini rivojlantirishga doir chora-tadbirlar” 60-bandida belgilangan “Davlat tili haqida”gi Qonun ijrosini so‘zsiz ta’minlash” mavzusidagi targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda, xususan, targ‘ibot vositalari, ma’ruza matnlari va tarqatma materiallarni tayyorlashda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2025-yil 15-sentabrdagi 10/587-son dalolatnomasi). Natijada o‘zbek va ingliz xalqlari dunyoqarashini qiyoslashga oid ilmiy ma’lumotlar keng jamoatchilikka yetkazilgan hamda davlat tilining nufuzini oshirishga qaratilgan targ‘ibot ishlarining mazmuni boyitilgan;

badiiy tarjimada lingvokulturemalarni leksik transformatsiyalar vositasida ifodalash asliyatdagi milliy koloritni yuqori darajada saqlash imkonini berishiga oid ilmiy xulosalardan Xorazm viloyati Mahmud Zamaxshariy nomidagi axborot-kutubxona markazi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi 781-son qarori bilan tasdiqlangan 2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi ijrosi doirasida amalga oshirilgan loyihalarda foydalanilgan (Xorazm viloyati Mahmud Zamaxshariy nomidagi axborot-kutubxona markazining 2025-yil 18-sentabrdagi 01-02/147-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur mavzudagi ilmiy maqola va tezislar markazning o‘quv zallarida kitobxonlarga taqdim etilib, o‘zbek adabiyoti namunalarining xorijiy tillardagi tarjimalariga bo‘lgan qiziqishni oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, 4 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 10 ta ilmiy maqola chop etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jumladan, 8 tasi respublika maqola hamda 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilova va shartli qisqartmalardan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 148 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ishining birinchi bobi “Tarjimaning lingvokulturologik xususiyatlari” deb nomlangan bo‘lib, unda tarjimaning lingvokultur xususiyatlari tahlil qilingan hamda madaniyat va tilning o‘zaro aloqasi natijasida shakllangan

lingvokulturologiya fani tilda o‘z aksini topgan xalq madaniyatining ko‘rinishlarini tadqiq etishi bayon etilgan. Ushbu bobda, shuningdek, til va madaniyat uzviyligi borasidagi tilshunos olimlar fikrlari o‘rganilib, aynan lingvokulturologiya fani tarjimashunoslikda lingvomadaniy qarashlar va yondashuvlarning shakllanishiga sabab bo‘luvchi omil ekanligi hamda tarjimada leksik transformatsiyalar klassifikatsiyasi yordamida lingvokulturemalarni tahlil qilish imkoni mavjudligi ko‘rib chiqilgan.

Birinchi bobning birinchi faslida “Til va madaniyat orasidagi uzviylik” tahlil qilingan. Ma’lumki, har qanday til o‘zida mazkur til egasining dunyoqarashini belgilaydigan milliy o‘ziga xos xususiyatlar tizimini mujassamlashtiradi. Bu tizim madaniyat deb nomlanadi. Til madaniyatning milliy komponentlari orasida birinchi o‘rinda turadi. Til madaniyatga kishilik jamiyatining muloqot vositasi bo‘lishiga yordam beradi. Til – uning sohiblarining muayyan jamoaga tegishli ekanini ko‘rsatadi[7]. Eduard Sepir tilni ijtimoiy haqiqatga yo‘l boshlovchi deb ataydi. Insonlarning tajribasi jamiyatning til odimlari bilan keng miqyosda belgilangan va har bir tizim alohida haqiqatni tasvirlaydi. Shunday ekan, turli jamiyatdagi foydalaniladigan so‘zlar ham turlichadir. Shu sababdan, til madaniyat yuragi hisoblanadi[8].

Tarjima jarayonida bir xalq madaniyati, ikkinchi bir o‘zga xalq madaniyatida qayta tiklanadi. Bu holat bir madaniyatning boshqasiga ta’siri demakdir. Shu bois mazkur faslda lingvokulturologik tadqiq va tarjima amaliyotining bir-biriga bog‘liqligini izohlash uchun avvalo til va madaniyatning uzviyligi o‘rganildi. Shuningdek, lingvomadaniyatda til madaniyatni namoyon qiluvchi va uni xalq ongida o‘rnatuvchi va mustahkamlovchi vosita sifatida qaralishi tahlil qilindi. Chunki, til va madaniyatning lingvokulturologiyada birlashuvi hamda tarjimada qiyoslanishi bugungi kunda tilshunoslikdagi dolzarb masala hisoblanadi.

Bobning ikkinchi fasli “Tarjimashunoslikda lingvomadaniy qarashlar va yondashuvlar” deb nomlangan bo‘lib, unda tarjimaga lingvokultur yondashuv bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar yoritilgan. So‘nggi yillarda tarjimaga lingvokultur yondashuv masalasi o‘zining dolzarbligi bilan jiddiy muhokamalarga sabab bo‘lib, mazkur tushuncha lingvokulturologiya va tarjima amaliyotining o‘zaro aloqasi natijasida ilm-fanga kirib keldi.

Tilshunoslikdagi izlanishlarning jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvokulturologiyada tarjimaga lingvomadaniy qarash va yondashuvga sabab bo‘luvchi til birliklari bu – “lingvokulturemalar” hisoblanadi. Aynan ular tarjimaning lingvomadaniy xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi birliklardir.

Tarjimaga lingvomadaniy qarashlar va yondashuvlar bo‘yicha amalga oshirilgan izlanishlarni dissertatsiya mavzularida ham uchratish mumkin. Misol uchun, Tuxtaxodjayeva Nargiza Akmalovna, Irgasheva Feruza Baxtiyorovna, Fayzulloyev Otabek Muxamadovich, Sharipova Aziza Abdumanapovna,

[7]Антипов Г.А., Донских О.А., Марковина И.Ю., Сорокин Ю.А. Текст как явление культуры. – Новосибирск, 1989. – С. 75.

[8] G‘ofurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent.: Tafakkur Bo‘stoni, 2012. – B. 29.

Sheraliyeva Shirin Abdisalomovna [9] larning tadqiqot ishlari bunga misoldir. Shunday qilib, mazkur faslda asliyat tilida kelgan lingvokulturemalarning tarjima tiliga o‘girilishi va qiyosiy tadqiq qilinishi borasidagi izlanishlar yoritildi.

Bobning uchinchi fasli “Tarjimada leksik transformatsiyalar klassifikatsiyasi” deb nomlangan. Mazkur faslda tarjima transformatsiyalari va ularning tarjima jarayonida qo‘llanishi borasida tarjimashunos olimlar L.S.Barxudarov, Y.I.Retsker, V.N.Komissarov, Z.G.Proshina, E.S.Aznaurova [10] larning asarlarida keltirilgan ta’riflar tavsifi, tarjima transformatsiyalariga oid turli xil qarashlari tahlili asosida leksik transformatsiyalar klassifikatsiyasi shakllantirildi.

1-jadval

Leksik transformatsiyalar klassifikatsiyasi

V.N.Komissarov	*Transliteratsiya usuli*
	Kalkalash usuli
Y.I.Retsker	*Konkretlashtirish*
L.S.Barxudarov	
V.N.Komissarov	
Z.G.Proshina	
E.S.Aznaurova	
L.S.Barxudarov	*Umumlashtirish*
Y.I.Retsker	
V.N.Komissarov	
Z.G.Proshina	
E.S.Aznaurova	
Y.I.Retsker	*Modulyatsiya*
V.N.Komissarov	
E.S.Aznaurova	
Z.G.Proshina	
Y.I.Retsker	*Kompensatsiya*
Z.G.Proshina	
E.S.Aznaurova	

[9] Tuxtaxodjayeva N.A. “Badiiy tarjimada lingvokulturemalarning ifodalanishi (ingliz va o‘zbek tillari misolida)”. Filol. fan. b. fals. dokt. (PhD) …diss. – Toshkent, 2017. – B. 6. ; Irgasheva Feruza Baxtiyorovna. “Nemis tilidan o‘zbek tiliga lingvokulturemalar tarjimasining sotsiolingvistik aspektlari”. Filol. fan. b. fals. dokt. (PhD) …diss. – Buxoro, 2023.; Fayzulloyev O. M. “O‘zbek folkloridagi lingvokulturemalarning inglizcha tarjimada berilishi (bolalar folklori va ertaklar misolida). Filol. fan. b. fals. dokt. (PhD) …diss. – Toshkent, 2019. – B. 10.; Sharipova A. A. “Stilistik sinonimlar tarjimasining lingvokulturologik xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida)”. Filol. fan. b. fals. dokt. (PhD) …diss. – Toshkent, 2017. – B. 6.; Sheraliyeva Sh.A. “Ingliz va o‘zbek tillaridagi diniy frazeologik birliklarning lingvomadaniy aspekti”. Filol. fan. b. fals. dokt. (PhD) …diss. – Toshkent, 2023. – B. 6.

[10] Бархударов Л.С. Язык и перевод. М., изд. Международные отношения, 1975. – С. 5.; Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – Москва.: Р.Валент, 2007. – С. 48–54.; Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). Учеб. – М., 1990. – С.174.; Proshina Z.G. Theory of Translation. (English and Russian). Vladivostok Far Estern University Press, 2008. – P. 44.; Aznaurova E.S., Abdurakhmanova Kh.I., Demidova I.M., Iriskulov M.T., Phomenko N.V., Sabirova M.A., Takhirjanova S.T., Khudaiberganova M. K. “Translation theory and practice”. O‘qituvchi, 1989. – P. 9.

Shunday qilib, tilshunos olimlarning leksik transformatsiyalar klassifikatsiyasidan kelib chiqqan holda quyidagi leksik transformatsiya usullari tadqiqot obyekti qilib olindi: transliteratsiya usuli, kalkalash usuli, konkretlashtirish, umumlashtirish, modulyatsiya, kompensatsiya.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "Lingvokulturemalar tarjimasida leksik transformatsiyalar" deb nomlanib, unda lingvokulturemalar – tarjima obyekti sifatida o'rganildi hamda ularni tarjima qilishda leksik transformatsiyalarning ahamiyati, leksik transformatsiya turlari tasnifi yoritib berildi, shuningdek, "O'tkan kunlar" asarining tarjima variantlari qiyosi asosida lingvokulturemalarning leksik transformatsiyalar vositasida ifodalanishi tahlil qilindi.

Bobning birinchi faslida "Lingvokulturemalar – tarjima muammosi sifatida" tadqiq etilgan. Tarjima jarayonida lingvokulturemalarni semantik, pragmatik va madaniy jihatdan to'g'ri yetkazish muhim sanaladi. Mazkur faslda tilshunos olimlar tomonidan lingvokulturemaga berilgan ta'riflar, uning turlari ko'rib chiqildi. Unga ko'ra, ekvivalentsiz leksika, lakunalar, realiyalar, maqollar, frazeologik birlik va iboralar, metafora, metonimiya, antonomosia, undov gap kabi stilistik vositalar, nutqiy xulq-atvor, nutq etiketi (odobi), madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi gaplar, matnlar[11] lingvokulturemani shakllantiruvchi vositalar ekanligi oydinlashtirildi. Natijada tilshunoslar tomonidan lingvokulturemaga berilgan ta'riflar asosida tadqiqot ishi uchun "lingvokulturemalar ro'yxati" shakllantirildi.

Bobning ikkinchi fasli "Leksik transformatsiya usullari tasnifi" deb nomlangan bo'lib, unda leksik transformatsiya usullari va o'ziga xos jihatlari yoritilgan:

Transliteratsiya – lingvokulturemalarni tarjima tiliga fonetik jihatdan moslashtirish hisoblanadi. Bunda so'z talaffuzini saqlash muhim sanaladi. Tarjimada asosan bu usuldan kishi nomlari, joy nomlari, lavozimlar, lingvokulturemalarni transliteratsiya qilishda keng foydalaniladi. Misol uchun, xon – khan, taqsir – taksyr, aqiqa – aqiqah, hoji – hadji/hajji, nisholda – nishalda/nishaldah, chopon – chapan deb transliteratsiya qilingan.

Kalkalash – so'z, qo'shma ot, ibora yoki birikma ko'rinishida kelgan lingvokulturemalarni tarjima tilida mavjud bo'lgan til birliklariga mos tarzda so'zma-so'z tarjima qilish usulidir. Masalan, "choyxona" qo'shma oti "tearoom" deb, "nosqovoq" esa "tobacco gourds" deb kalkalangan.

Konkretlashtirish – lingvokulturemani aniqlashtirish orqali tarjima qilishni nazarda tutadi. Misol uchun, o'zbek tilidagi "ko'rpa" ingliz tiliga "cotton quilts" deb, "Oy-kuni" iborasi esa "The day of childbirth" (tug'ish kuni) deb konkretlashtirilgan.

Umumiylashtirish – asliyatdagi lingvokulturemalarni tarjima tilida muqobili mavjud emasligi sababli umumiy tushuncha orqali berishdir. Misol uchun,

[11] Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. Заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – С. 26.

“mahsi” oyoq kiyimi ingliz tiliga “shoes” deb, “mahr” so‘zi esa “the belongings” (tegishli narsalar) deb ma’noni umumlashtirish orqali tarjima qilingan.

Modulyatsiya – asliyat va tarjima tili so‘z birikmalarining bir-biriga mos kelishini kontekstual, mantiqiy jihatdan yaqinlashtirishga asoslangan bo‘lib, bunda asliyatdagi lideb, ngvokulturemaning mazmuni tarjima tilida biroz o‘zgartirish orqali tushunarliroq shaklda beriladi. Masalan, “barakalla” so‘zi “glory to you” “blessing in prayer” deb , “tavba” so‘zining esa “Good Lord”, “Oh, my Allah” kabi tarjimalari modulyatsiya usuli orqali berilgan bo‘lib, bunda mazmun ingliz tiliga xos obraz va ifoda bilan qayta tiklangan.

Kompensatsiya – gapning tushirib qoldirilgan qismini to‘ldirish degan ma’noni anglatib, odatda asliyatdagi stilistik vositalarni tarjima tilida muqobili yoki ekvivalenti yo‘q bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi. Misol uchun, “tomoq” so‘zi “cook”, “order” kabi tarjimalar bilan berilishi kompensatsiyaga misol bo‘lib, bunda asosiy ma’no tarjima tiliga moslashtirilgan holda qayta tiklangan.

Shunday qilib, mazkur faslda har bir transformatsiyaning tarjimadagi vazifasi tahlili natijasida lingvokulturologik birliklar va ularning qaysi leksik transformatsiya usuli orqali tarjima qilinishi oydinlashdi. Bu aniqlik quyidagi jadvalda taqdim etildi.

2-jadval

Lingvokulturemalar tarjimasida leksik transformatsiyalar

Lingvokulturemalar	Leksik transformatsiya usullari
Muqobilsiz leksikalar	Transliteratsiya/Konkretlashtirish/Umumlashtirish
Frazeologik birliklar	Kalkalash usuli/Modulyatsiya/Kompensatsiya
Maqollar	Kalkalash usuli/Modulyatsiya/Kompensatsiya
Stilistik vositalar	Kompensatsiya
Metafora va metonimiya stilistik vositalari	Modulyatsiya
Qahramon nutqi xususiyatlari	Kompensatsiya

Mazkur jadvalda lingvokulturemalar tarjimasida bir qancha leksik transformatsiyalardan foydalanish mumkinligi ko‘rsatilgan. Demak, leksik transformatsiyalar lingvokulturemalar tarjimasida istiqbolli usullardan ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Bobning uchinchi fasli “O‘tkan kunlar” asarining tarjima variantlarida lingvokulturemalarning leksik transformatsiyalar vositasida ifodalanishi” deb nomlanadi. Bunda Kerol Yermakova, Mark Eduard Riz va I.M.To‘xtasinov tarjimalarida qo‘llanilgan leksik transformatsiyalar soni jadvalda berilgan.

3-jadval

“O‘tkan kunlar” romani inglizcha tarjima variantlarida qo‘llanilganligi aniqlangan leksik transformatsiya usullar soni

	Kerol Yermakova	**Mark Eduard Riz**	**I.M.To‘xtasinov**
Transliteratsiya	85	80	66
Kalkalash	17	27	15
Konkretlashtirish	22	20	18
Umumlashtirish	15	12	17
Modulyatsiya	64	62	62
Kompensatsiya	17	20	18
Jami:	**206**	**221**	**196**

Jadval uch tarjimon tomonidan lingvokulturemalar tarjimasida qo‘llanilgan leksik transformatsiyalar sonini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra:

1. Transliteratsiya. Ushbu usul barcha tarjimonlar orasida eng keng qo‘llanilgan bo‘lib, Kerol Yermakova tarjimasida transliteratsiya orqali tarjima qilingan 85 ta lingvokulturema aniqlandi. Bu tarjimada asliyatga sodiqlikni saqlashga harakat qilinganini ko‘rsatadi. Mark Eduard Riz tarjimasida 80 ta, I.M.To‘xtasinovda esa nisbtan kam 66 ta lingvokulturema tarjimasi aniqlandi.

2. Kalkalash.Mark Eduard Riz tarjimasida kalkalash eng ko‘p qo‘llangan lingvokulturemalar aniqlandi. Boshqa ikki tarjimonda bu ko‘rsatkich pastroq – Kerol Yermakovada 17ta, I.M.To‘xtasinovda 15ta.

3. Konkretlashtirish. Bu usul Kerol Yermakova tarjimasida yetakchilik qilgan, ya’ni u umumiy ifodalarni yanada aniqroq mazmunga ega shaklda keltirishga intilgan. Tarjima variantida konkretlashtirilgan 22 ta lingvokulturema aniqlandi.

4. Umumlashtirish. I.M.To‘xtasinov tarjimasida 17 ta ma’nosi umumlashtirilgan lingvokulturemalar aniqlandi. Bunda tarjimon aniq madaniy tushunchalarni tarjimada umumiyroq mazmunda berishni afzal ko‘rgan.

5. Modulyatsiya. Uchala tarjimon ham bu usuldan unumli foydalanishgan. Bu tarjima usuli lingvokulturemalar tarjimasida universallashgan strategiya sifatida o‘z o‘rniga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu usul tarjima adekvatligini saqlab qolish, madaniyatlararo tafovutlarni asliyatga mos ifoda bilan tarjima qilish imkonini beradi.

6. Kompensatsiya. Mark Eduard Riz tarjimasida bu usulga ko‘proq murojaat qilinganini ko‘rish mumkin. Bu esa tarjima jarayonida ba’zi yo‘qotilgan semantik yoki stilistik komponentlarni boshqa kontekstdan tiklashga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Mark Eduard Riz bu strategiyani 20 ta lingvokulturema tarjimasida qo‘llagan, bu esa uning madaniy funksional ekvivalentlikni saqlashga intilishini bildiradi. Kerol Yermakovada 17 ta, I.M.To‘xtasinov tarjima variantida esa 18 ta lingvokulturema tarjimasi aniqlandi.


Ushbu tahlil shuni ko‘rsatadiki, har bir tarjimon o‘z yondashuvi va tarjima

strategiyasiga ega. Bunda Kerol Yermakova asliyatga sodiqlikka urg‘u bergan bo‘lsa, Mark Eduard Riz madaniy moslik va semantik aniqlikka e’tibor qaratganini ko‘rish mumkin. I.M.To‘xtasinov esa ma’noni umumlashtirishga tayangan. Bu tahlil natijalari tarjimada ekvivalentlik va madaniyatlararo moslik masalalarini chuqur yoritishga imkon beradi.

Shunday qilib, jadvalda keltirilgan lingvokulturemalarni leksik transformatsiyalar vositasida tarjima qilinganligi ilmiy ishning yangiligi hisoblanib, aynan ular leksik transformatsiyalarning lingvokulturologik tadqiqi uchun asos ekanligi aniqlandi. Tarjimonlik amaliyotida lingvokulturemalarni tarjimasi murakkab jarayon bo‘lib, u ko‘plab leksik transformatsiyalardan foydalanishni talab qilishi ma’lum bo‘ldi.

1-diagramma

Lingvokulturemalar tarjimasida qo‘llanilgan leksik transformatsiya usullari qiyosi tarjimonlar misolida



Diagrammada ko‘rsatilganidek, uch tarjimonning leksik transformatsiya usullarini qo‘llash darajalari turlicha bo‘lib, ba’zi usullar boshqalarga nisbatan kengroq qo‘llanilganligi aniqlandi. Bunda Transliteratsiya usuli barcha olimlar orasida eng yuqori qo‘llanilish darajasiga ega bo‘lib, Kerol Yermakova (85), Mark Riz (80), va I.M. To‘xtasinov (66) tomonidan keng qo‘llangan. Modulyatsiya ham yuqori darajada ishlatilgan, Kerol Yermakova (64), Mark Riz (62), va I.M. To‘xtasinov (62) ko‘rsatkichlari yaqin. Kalkalash usulidan Mark Riz

(27) ancha ko‘p foydalangan, Kerol Yermakova (17) va I.M. To‘xtasinov (15) esa kamroq qo‘llagan. Konkretlashtirish va Umumlashtirish usullari o‘rtacha darajada qo‘llanilgan, lekin Kerol Yermakova va I.M.To‘xtasinov bu usullardan biroz ko‘proq foydalanishgan. Kompensatsiya usuli uch tarjimon orasida eng kam qo‘llanilgan bo‘lib, ko‘rsatkichlar 17–20 oralig‘ida. Xulosa qilib aytganda, transliteratsiya va modulyatsiya usullari “O‘tkan kunlar” tarjimasida eng samarali usullardan deb topildi. Qolgan usullar esa holatga qarab qo‘llanilishi yoki nisbatan kamroq afzal ko‘rilishi ma’lum bo‘ldi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Tarjimada leksik transformatsiyalarning lingvokulturologik tahlili” deb nomlangan bo‘lib, unda leksik transformatsiya vositasida tarjima qilingan o‘zbek tili lingvokulturemalari hamda ularning tarjima variantlari chog‘ishtirma tahlili va o‘ziga xos lingvokulturologik jihatlari tahlili atroflicha tadqiq etilgan. Mazkur bobda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani lingvokulturemalari tarjimasi qiyosi ijodiy o‘rganildi va daliliy natijalar keltirildi.

Uchinchi bobning birinchi fasli “Tarjimada transliteratsiyaning lingvokulturologik ahamiyati” deb nomlangan. Mazkur faslda “O‘tkan kunlar” asari tarjima variantlarida transliteratsiyaga uchragan lingvokulturemalar tahlili keltirildi. Masalan, asliyat matnida Kumush ismi bilan birga “otin” leksemasi qo‘llanilganini ko‘rish mumkin. (O‘K.322) O‘zbek tilida “otin” so‘zi hurmat, obro‘, diniy bilim va ijtimoiy mavqe ramzi sifatida ayol kishiga murojaat qilinganda ishlatiladi. (O‘TIL.155) Demak, asliyatda Kumush ismiga “otin” so‘zining qo‘shib ishlatilishi bu Kumushga bo‘lgan xurmat, uning obro‘li xonadon qizi ekanligidan dalolatdir. Kerol Yermakova tarjimasida “otin” so‘zi “atyn” shaklida transliteratsiya qilingan. (DGB.287) Shuningdek, tarjimon qo‘shimcha izohda so‘zning hurmat ma’nosini ifodalashini ham izohlagan: “denotes respect when used with the proper name” (xurmat ma’nosini bildirib, kishi ismlari bilan birga qo‘llaniladi). Bu uslub lingvokulturologik jihatdan to‘g‘ri, chunki o‘quvchi so‘zning asl ma’nosini anglab yetishi uchun imkon yaratilgan. I.M.To‘xtasinov esa “otin” so‘zini asliyatdagi shaklida qoldirgan. (TDGB.312) Natijada, tarjimada asl madaniy ma’no saqlangan. Ammo qo‘shimcha izoh berilmaganligi sababli, tarjimaning bu variantida madaniyatlararo tushunmovchilik yuzaga kelishi mumkin. Mark Eduard Riz tarjimasida esa “otin” o‘rniga “khotin” so‘zi ishlatilgan, bu esa o‘zbek tilidagi “xotin” so‘zining transliteratsiyasi hisoblanadi. (BD.347) O‘zbek tilida “xotin” so‘zi ko‘proq oddiy ayol yoki er nikohidagi ayol ma’nosini anglatadi. (O‘TIL.415) Bu so‘z madaniy hurmat va ijtimoiy mavqeni anglatuvhi “otin” so‘zidan tubdan farq qiladi. Shuning uchun tarjimada “otin”ning “khotin” deb berilishi madaniy kontekstni buzadi, asl mazmunni yo‘qotadi. Xulosa qilib aytganda, tarjimada transliteratsiyadan foydalanilganda madaniyatlararo farqlar oydinlashadi. Shu bois, mazkur leksik transformatsiya tarjima tilining boyishiga zamin yaratuvchi samarali usul hisoblanadi.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli “Tarjimada kalkalash usulining lingvomadaniy xususiyati” deb nomlanib, bunda lingvokulturemalar tarjimasida kalkalashning qo‘llanilishi tarjimada madaniy qatlam boyligi yo‘qolishiga sabab

bo‘lishi yoritildi. Masalan, “O‘tkan kunlar” romanida “choyxona” qo‘shma oti qo‘llanilgan. (O‘K.156) O‘zbek tilida “choyxona” so‘zi an’anaviy madaniyat va ijtimoiy hayotga oid lingvokulturologik birlik sifatida e’tiborga loyiq bo‘lib, u choy ichib, tamaddi qilib, hordiq chiqariladigan jamoat joyini bildiradi. (O‘TIL.504) Shu bilan birga, “choyxona” leksik birligining sinonimlari orasida “samovar”, “samovarxona” kabi atamalar ham mavjud. Mazkur birlik nafaqat predmet nomini bildiradi, balki o‘zbek milliy turmush tarzi, ijtimoiy odatlarni va madaniy qadriyatlarni ham aks ettiradi, shuning uchun u tarjimada lingvokulturologik jihatdan sezilarli muammo tug‘diradi.Romanning ingliz tilidagi tarjimalarida “choyxona” turlicha talqin qilingan. Jumladan, Kerol Yermakova tarjimasida “chaikhana” shakli qo‘llanilgan. (DGB.143) Ushbu yondashuvda asliyat tiliga xos so‘z bevosita transliteratsiya qilingan. Mazkur usul o‘quvchiga o‘zbek madaniyatining autentikligini yetkazishga xizmat qiladi, ammo birlikning funksionalligini va ingliz tilida tushunarliligini ta’minlash jihatidan cheklovlarga ega.Mark Eduard Riz tarjimasida “choyxona” “tearoom” shaklida berilgan. Bunda tarjimon kalkalash (calque) usulinidan foydalangan: choy – tea, xona – room. Natijada birlikning tarkibiy strukturasini so‘zma-so‘z saqlash orqali ma’no yetkazilgan. (BD.176) Shu bilan birga, “tearoom” ingliz tilida o‘zbek “choyxona” tushunchasiga to‘liq mos kelmaydi: u odatda choy ichiladigan, ammo milliy va madaniy kontekstga xos bo‘lmagan joyni bildiradi. Shuning uchun mazkur tarjima lingvokulturologik nuqtai nazardan qisman begonalashgan, lekin tarjima jarayonida so‘zma-so‘z moslik va madaniy ifoda saqlanishi jihatidan qiziqarli misol bo‘ladi.I.M.To‘xtasinov tarjimasida esa “chaikhona” shakli qo‘llanilgan, bu Yermakovaning yondashuviga o‘xshash bo‘lib, transliteratsiya va begonalashtirish strategiyasiga kiradi. (TDGB.148) Shu tarzda tarjimon milliy birlikni o‘z-o‘zidan saqlab qolishga intilgan, lekin ingliz tilida uning semantik va funksional mosligini ta’minlash darajasi cheklangan. Xulosa qilib aytganda, Mark Eduard Rizning “tearoom” varianti lingvokulturologik nuqtai nazardan kalkalash misoli sifatida baholanishi mumkin, chunki u asliyat tili birliklarining tarkibiy qismlarini so‘zma-so‘z tarjima qilgan va shu orqali lingvistik tuzilmani saqlab qolgan. Shu bilan birga, bu yondashuv milliy realiyaning to‘liq aks etishini kafolatlamaydi, balki ingliz tilida o‘quvchi tomonidan qisman yanglish talqin qilinishi mumkin.

